

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

№ 23 (67240)
2019-yil 10-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

OTANGGA RAHMAT, FAZILATXON!

BESH TASHABBUS

Besh tashabbus kashf etildi,
Yaratildi, yetildi.
O'qildi Gulistonda –
Ish boshlandi Bo'stonda.

**II. Yoshlar hamrohi sport,
Shaxmat-shashka, tennis kort.
Mana ochildi «Humo»,
Lol qoldi butun dunyo.**

O'zbek qiz-o'g'lonlari,
Xalqimiz polvonlari.
Ularni qo'llaydi el,
Kuraklari ko'rmas yer.

**I. Bizda teatr, san'at,
Ko'p asrlik madaniyat.
Musiqqa hamda rasm,
Xalqimiz qilar ta'zim.**

Adabiyot bosh mavzu,
Bobolar qilgan orzu.
Ular qoni bor tanda,
She'r yozaman shu onda.

**V. Endi onalar ishlar,
Bekor qolmas yoz-qishlar.
Bizlar qo'llab turamiz,
Faxrlanib yuramiz.**

Ular safida onam,
Kam bo'lmasin deb bolam.
Men ham o'qib bilay der,
Elga xizmat qilay der.

Fazilat YOQUBOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi
27-DIUM 3-«A» sinf o'quvchisi

**III. Kompyuter bor har uyda,
Goh kunduzi, goh tunda.
Internetni yoqamiz,
Keng olamga boqamiz.**

Bu ham bir ajib biroq,
Kirib ketmangiz uzoq.
Afsus qilasiz keyin,
Chiqish juda ham qiyin.

**IV. Bo'kaga keldi karvon,
Bular ne deb el hayron.
Nurli eshiklar ochildi,
Xalqqa ziyo sochildi.**

Sovg'a qilindi kitob,
Charaqlab ketdi oftob.
Jo'shib ketdi yuraklar,
Aytildi ko'p tilaklar.

Yurtboshim, bo'ling omon,
Siz doimo xalq tomon.
Yurtimiz tinch, el totuv,
Kimlargadir bu orzu.
Sizda Temurning qoni,
Siz chin O'zbek o'g'loni.
Besh tashabbus bo'lsa jam,
Yurtda bo'lmas hech kim kam!

2-bet

(Davomi. Boshi 1-betda)

Muhtaram Prezidentimiz Bo'ka tumanida joylashgan 27-DIUMning 3-«A» sinf o'quvchisi Fazilat Yoqubovaning besh tashabbusga bag'ishlab yozgan she'rini eshitib, uning ijod qilishi, o'qib-o'rganishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergani uchun otasiga mashina sovg'a qildilar.



Kim qachon va qay tarzda qilgan mehnatlari samarasini ko'rishi mumkin, oldindan bilib bo'lmaydi. Farzandiga yaxshi tarbiya berish, bilim olishiga ko'maklashish har bir ota-onaning eng oliy burchi hisoblanadi. Shuningdek, ustoz va murabbiylarning ham.

OTANGGA RAHMAT, FAZILATXON!



Prezidentimiz tashrif buyurgan mazkur maktabning kutubxonachisi va «Yosh qalamkashlar» to'garagi rahbari Surayyo opa Ne'matova bilan suhbatlashdik. Surayyo opadan Prezidentimiz tashrifi chog'ida «Besh tashabbus» deb nomlangan she'rini o'qib, davlatimiz rahbarining sovg'asiga sazovor bo'lgan 3-«A» sinf o'quvchisi Fazilat Yoqubova haqida gapirib berishlarini so'radik.

– Bugun Fazilatxonga havas qilmagan, qaniydi men ham uning o'rnida bo'lib qolsam, deya orzu qilmagan o'g'il-qiz bo'lmasa kerak. Lekin Fazilat bu yutuqlarga o'zining tinimsiz o'qib-izlanishi orqali erishdi. Qizaloqning 1-sinf-danoq she'r yozishga ishtiyoqi baland edi. Buni sezgan sinf rahbari uni kutubxonamiz qoshida ochilgan «Yosh qalamkashlar» to'garagiga a'zo qilib qo'ydi. To'garagimizda besh tashabbus mavzusida she'r yozish tanlovini e'lon qilgan edik. Fazilatxon kutubxonada o'tirib she'r yozishga kirishib ketdi. Buni qarangi, shuncha o'quvchilarimiz orasida jajji Fazilatxonning ijod namunasi tanlov uchun yozilgan she'r-lar ichida eng yaxshisi deb topildi. U she'r yozish bilan chegaralanib qolmaydi. Bundan tashqari, ingliz tili va matematika fanlariga ham juda qiziqadi. Kelgusida jajji shoiramiz o'qituvchi bo'lish orzusida.

Fazilatga bundan-da ulkan za-farlar tilab, avvalo, Prezidentimiz, qolaversa, ota-onasi hamda ustozlari ishonchini oqlashiga tilakdoshmiz.

Nigora ABDUNAZAROVA

MUHAMMAD YUSUF IJOD MAKTABIGA PREZIDENT SOVG'ASI TOPSHIRILDI

Yodingizda bo'lsa, Prezidentimiz Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda bo'lib, ijodkor yoshlar bilan uchrashgandi.

Suhbat davomida Yurtboshimiz o'quvchilarning boshqa viloyatlardagi ijod maktablariga borib, tengdoshlari bilan muloqot qilishlariga ko'maklashish maqsadida mazkur maktabga avtobus ajratish haqida mutasaddilarga topshiriq bergan edi.

Kuni kecha Andijon shahridagi Muhammad Yusuf xiyobonida keng jamoatchilik vakillari, o'quvchi-yoshlar ishtirokida viloyat hokimi Sh. Abdurahmonov maktab jamoasiga Prezident sovg'asi – avtobusni tantanali ravishda topshirdi.

Mazkur sovg'a yosh ijodkorlarning yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishlariga xizmat qilsa, ajab emas.

O'z muxbirimiz



NURLI MANZILLARGA ELTUVCHI YO'L

Bugun yurtimizning barcha go'shalarida yoshlarimizning porloq istiqbolini ko'zlab o'tkazilayotgan tadbirlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan tatbiq etilgan beshta muhim tashabbus o'quvchilarimizga o'zgacha kayfiyat baxsh etdi.

Ushbu tashabbusga Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 1400 nafar o'quvchisi va 82 nafar o'qituvchisi zo'r ishtiyoq va ko'tarinki ruhda javob berishdi. Yoshlarimiz ruhiyatini ko'tarish, ularga kuch bag'ishlash uchun har bir kun bayramona tarzda o'tmoqda. Shodiyonalar shukuhi ularning ko'nglini tog'dek ko'tarmoqda. «Kamalak» oromgohi bolajonlarimizni o'z bag'riga chorladi. Kelajagimiz egalari-ning ertangi kuni biz ustozlarning qo'lida ekan. Prezidentimizning farzandlarimizga bo'lgan g'amxo'rliklarini keng tatbiq etib, o'quvchilarimizning ta'lim-tarbiyasiga yanada jiddiyroq yondashishga shaymiz. Ta'tilda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari

o'tkazish, badiiy to'garaklar tashkil qilish, kutubxonalardan foydalanish hamda kompyuterda ishlash, turli xil kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini oldimzida turgan asosiy maqsad etib belgiladik.

O'ylaymizki, har bir tashabbus zamirida o'quvchini porloq kelajakka eltuvchi nurlu yo'l mavjud. Bu yo'ldan ildam odimlash zavqi yoshlarimiz qabini sira tark etmasin.

Nodira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
2-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

SARGUZASHTLAR HALI OLDINDA

Yaqinda viloyatimizning 11 nafar omadli, baxtli yoshlari qatori men ham Surxon vohasida bo'lib o'tadigan loyihada ishtirok etish uchun yo'lga otlandim.

Delegatsiya rahbarimiz G'olib aka samimiy, ochiqko'ngil, hazilkash inson ekanlar. Navoiy shahrimizdagi muhtasham vokzalga yetib kelgach, poyezdni kuta boshladik. Delegatsiya a'zolari bilan yaqindan tanishib olishning ayni vaqti. Meni faqat bir narsa tashvishga solardi: yukim og'ir, uni manzilgacha qanday ko'tarib borarkinman? Eh, oyim aytgandilar-a, faqat zarur narsalarni ol, deb. E'tibor berib qarasam, chamasi 12-13 yoshlar atrofidagi qorachadan kelgan, ryukzagidan boshqa yuki bo'lmagan bola ham biz bilan bir safda ekan. U bilan tanishib oldim.

– Berdiyori, yuking juda yengilga o'xshaydi. Meniki esa rosa og'ir. Yordamlashib yubormaysanmi-a?

– Mayli, beraqoling, – dedi. Bundan behad mamnun edim. Nihoyat, Navoiy – Samarqand yo'nalishidagi poyezd ham yetib keldi. G'olib akaning nazorati ostida o'z o'rnimizni egallab oldik. Poyezdda Oysha ismli qiz bilan ham tanishdim. Samimiyatga boy bo'lgan ushbu tengdoshim bilan dildan

subhatlashdik. Poyezddan tushib, Samarqand vokzalining kutish zaliga yo'l oldik. Negaki, endi biz Samarqand

– Termiz yo'nali-shidagi poyezdni kutardik, u esa 5 soatdan so'ng yetib kelishi kerak edi. Uzoq kutilgan poyezdimiz yetib keldi, o'z vagonlarimizga joylashib oldik. Kupedagi yo'lovchilar miriqib uxlashardi. Shu payt sumkam yodimga tushib qoldi.

– Berdiyori, sumkamni uzatib yubor, – dedim «mehribon» yo'ldoshimga qarata. Shu damda u menga qo'rquv va hayrat ko'zlari bilan boqib:

– Men... men... sumkangiz... kutish zalida qolib ketibdi, – dedi.

Tamom. Dunyo ko'zimga qorong'u ko'rinib ketdi. Axir pullarim, kiyimlarim, tug'ilganlik haqidagi guvohnomamning asl nusxasi o'sha sumkada edi-da. Nima qilishimni bilolmay alamimdan yig'lab

yubordim. Ovozimdan hatto vagondagilar ham uyg'onib ketishdi. Aksiga olib, rahbarimiz G'olib aka boshqa



vagonda ketayotgan edi. Borib olib kelay desam, poyezd yurib ketishidan qo'rqardim. Olib kelmasam ham bo'lmas edi. Yaxshiyamki, Oysha darhol G'olib akaga qo'ng'iroq qilib vaziyatni tushuntirdi.

Shu damda rahbarimiz o'ylab ham o'tirmay sumkamni olib kelish uchun tushib ketdi. Bir necha daqiqa kutdik. Lekin... Poyezd joyidan qo'zg'alib yura boshladi ham-

ki, G'olib akadan hamon darak yo'q. Vujudimni vahima qopladi. Men tufayli G'olib aka poyezddan qolib ketdi.

U ham mayli, delegatsiya rahbarsiz qoldi. Endi kim bolalarga mas'ul bo'ladi?! Tabiatan juda ko'ngli bo'sh odam emasmanmi, yig'isig'im avjiga chiqdi. Butun vagon ahli uyg'onib tepamda yig'ildi. Ko'z oldimda mendan darg'azab bo'lgan G'olib aka, norozi hamrohlar qiyofasi, tanbeh berayotgan oyim gavdalandi. Dugonam Oysha esa meni yupatish bilan ovora

edi. Shu payt... unga G'olib aka qo'ng'iroq qildi. Yuragim «shuv» etib ketdi. Meni rosa urushsalar kerak, deb o'ylab qo'rqa-pisa qo'l telefonni qulog'im-ga tutdim.

– Allo?
– Lobar?
– G'olib aka, il-timos meni kechi-ring (yana yig'lab yubordim).

– Nega un-day deyapsan? Yig'lama, jinnivoy, sumkang menda. Endi xotirjam uxla, ertaga sumkangni mendan olasan.

– Axir... Siz... o'ziz qayerdasiz?

– Men o'z vagonimdaman. Xudoga shukurki, poyezdning oxirgi vagoniga chiqishga ulgurdim. Endi uxlanglar. Hali hamma sarguzashtlar oldinda. Bu boshlanishi, xolos...

Shu kuni o'zim uchun yangi bir qahramonni kashf etdim.

Lobarxon JALOLOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi 11-DIUM o'quvchisi

SPORTS WORD SEARCH

B	A	S	K	E	T	B	A	L	L
O	J	U	D	O	B	A	S	K	M
X	I	R	O	B	O	S	U	R	G
I	L	F	E	N	S	E	B	C	O
N	O	I	D	A	F	B	C	D	L
G	O	N	A	P	Z	A	Y	K	F
L	F	G	C	Y	K	L	I	N	G
F	O	O	T	B	A	L	L	B	D
D	A	R	T	B	O	A	R	D	K
L	A	W	N	T	E	N	N	I	S



Baseball, Judo, Football, Basketball, Cycling, Boxing, Lawn Tennis, Surfing, Dartboard, Golf.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

SPORT QUOTES

I just want people to see me as a hard-working footballer and someone who is passionate about the game.

David BECKHAM

Worrying gets you nowhere. If you turn up worrying about how you are going to perform, you have already lost. Train hard, turn up, run your best and the rest will take care of itself.

Usain BOLT

10-iyun 2019

Lesson 23

WHY PEOPLE SAY «THANK YOU?»

(V. Sukhomlinskiy)



Two ones walked along the forest road – a grandfather and a boy. It was too hot, so they wanted to drink. Travelers come to the creek. The cool water was purling quietly. They bent over and drank the water.

– Thank you, creek, – said the grandfather. The boy laughed.

– Why you have said «Thank you» to the creek? – he asked. The creek is not alive, it cannot hear your words and understand your thankfulness.

– It is true. If a wolf drank the water, it would not say «Thanks».

But we are not wolves, we are humans. Do you know, for what people say «Thank you». Think about it: who needs this word?

The boy thought for it. He had a lot of time. The way was long.

Vocabulary

Creek – jilg'a
Purl – shildiramoq
Bend over – engashmoq

Translated by Nargiza PULATOVA,
the teacher of school № 274, in Yunusabad district,
Tashkent region

«ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR VA RASMLAR TANLOVI

Ikki kun mobaynida tinimsiz yoqqan kuchli yomg'ir tahririyatimiz xodimlarini biroz xavotirga solib qo'ydi. Nega, deysizmi? Chunki poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimiga bag'ishlangan tadbir o'tkazishni rejalashtirgan edik-da. Ammo kechga yaqin havo ochildi, chang, g'uborlardan tozalangan dov-daraxtlar bargi yaltiray boshladi. Havoning musaffoligidan kishining to'yib-to'yib nafas olgisi keladi. Shafaq qizg'ish tusga kirdi. Bu esa ertangi kun havo ochiq bo'lishidan darak berardi. Xuddi shunday bo'ldi. Ertasi kuni ertalabdan quyosh charaqlab, moviy rangdagi osmon kishiga xushkayfiyat bag'ishlay boshladi. Tabiatni asrashga bag'ishlangan tadbir bo'lgani uchun tabiat ham bizni siylayotgandek edi, go'yo.

Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuniga bag'ishlangan bayram tadbirini O'zbekiston Ekologik harakati markaziy Kengashi ijroiya qo'mitasi raisi Bobur Alixonov ochib berdi. U o'z nutqida atrof-muhitga, tabiatga

bo'lgan ehtiromimiz qadriyatlarimizda aks etishini, buyuk mutafakkirlarimiz, ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan meros tabiatga bo'lgan muhabbat bizning qon-qonimizga singib ketganini e'tirof etdi. Davlatimiz rahbarining shu yil 21-apreldagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni ona tabiat muhofazasida dasturulamal bo'layotganini zo'r mamnuniyat bilan ta'kidladi. 1972-yil 5-iyunda Stokgolm shahrida bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan konferensiyasida «Butunjahon atrof-muhit kunini nishonlash to'g'risida» Qaror qabul qilingan edi. Mana, 47 yildirki, mazkur sanaga bag'ishlab dunyo miqyosida turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazilib kelinayotgani haqida ham ma'lumot berildi.

Tadbir doirasida O'zbekiston Ekologik harakati, Xalq ta'limi vazirligi va «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati hamkorligida yurtimizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Onajonim tabiat» tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Laylo
ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi
5-umumta'lim maktabining
10-sinf o'quvchisi:
**UYIMIZDA BAYRAM
BO'LDI**

– Meni poytaxtga chaqirishgan kuni uyimizda bayram bo'lib ketdi. Menga havas qilayotgan barcha tengdoshlarimga, siz ham ko'proq kitob o'qing, o'z nashringiz bilan do'stlashing, shunda faolligingiz oshadi, dunyoqarashingiz kengayadi, do'stlar ortirasiz, bilimingizni charxlab, muvaffaqiyatlarga zamin hozirlagan bo'lasiz, deb qolaman. Men yaqinda «Kittoblik kitobxonlar» loyihasi doirasida o'tkazilgan «Zukko kitobxon» tanlovida ham g'olib bo'ldim.

Ilymona
ABULHASAN,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
102-umumta'lim maktabining 7-sinf
o'quvchisi:
**HAMKORLIKNI
QUVVATLAYMAN**

– Tadbir orqali ko'plab tashkilotlarning tabiatni, atrof-muhitni asrab-avaylash borasida olib borayotgan ibratli, xayrli, savobli ishlari haqida ma'lumotga ega bo'ldim. «Biz kelajak uchun javobgarmiz!» shiorini o'zining bosh g'oyasi deb belgilagan O'zbekiston Ekologik partiyasi faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlardan xabardor bo'ldim. Partiyaning atrof-muhit va fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish masalalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishi menga juda ma'qul bo'ldi. Zero, qalbimizda bog'cha yoshidanoq tabiatga mehr uyg'onsa, ona tabiatni asrab-avaylasak, u ham bizdan bor mehrini, ne'matini ayamaydi.



Sulaymon
MADAMINOV,
Toshkent shahar, Olmazor
tumanidagi 249-umumta'lim
maktabining 4-sinf o'quvchisi:
IKKIMIZGA OMAD KULDI

– Bu tanlovda singlim Madina bilan birga ishtirok etdik. Buni qarangi, ikkimiz ham g'oliblikka erishdik. Yutug'imizdan onajonim juda quvondilar. Yangi o'quv yilida bu yutug'im haqida ustozim va sinfdoshlarimga ham so'zlab beraman. Toki ular ham men kabi bo'sh vaqtlarini foydali o'tkazishsin, turli tanlovlarda ishtirok etib, yutuqlarga erishishsin!

Zahroxon
MUHAMMADJONOVA, Farg'ona viloyati,
Beshariq tumanidagi 26-umumta'lim maktabining
3-sinf o'quvchisi:

POYTAXTIMIZ JUDA GO'ZAL EKAN
– Meni ona tabiatni sevishga, uni asrashga tabiat fani o'qituvchimiz Muniraxon To'ychiyeva o'rgatganlar, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Sinfimizda gullar parvarishiga alohida e'tibor qaratamiz. Toshkent ham gullar shahri ekan.

Ziyoda
AHMADALIYEVA, Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 3-DIUMning 5-sinf o'quvchisi:

TABIAT POSBONI BO'LAMAN
– Sevimli gazetam «Tong yulduzi»da e'lon qilinadigan tanlovlarda g'olib bo'lgan tengdoshlarimga havas qilib, men ham g'olib bo'lsam, deb niyat qilardim. Maktabimiz qoshidagi «Bioekosan tabiatshunoslari» nomli to'garagimizga ustozimiz Ra'noxon Usmonova rahbarlik qiladilar. Ijodkor tengdoshlarimiz esa ona tabiat haqida she'r va maqolalar yozishadi. Men ham «Onajonim tabiat» tanloviga insho yozib yuborgandim, g'olib bo'ldim. Poytaxtga taklif qilishganda, quvonganimni bir ko'rsangiz edi. Bugun Gulsinoy buvijonim va ota-onam bilan taqdirlash marosimiga keldik. Insho yo'nalishida g'olib bo'lgan Zahroxon, Ilymona, Laylo opa, Kamola ismli qizlar bilan dugona tutindik. Kelajakda tabiatning chin ma'nodagi posboni bo'lishga va'da beraman. Va bu xayrli ishga tengdoshlarimni ham jalb qilaman.

G'OLIBLARI ANIQLANDI

Kamola KARIMJONOVA,
Toshkent viloyati,
Qibray tumanidagi
14-umumta'lim
maktabining 7-sinf
o'quvchisi:

BARHAMIZNING BURCHIMIZ

– Tabiat muqaddas xilqat. Biz yashab kelayotgan tabarruk zamin hamma-mizning, butun insoniyatning ko'z ochib ko'rgan umumiy makonidir. Shunday ekan, tabiatni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik barchamizning burchimizdir. Chunki dunyoga kelib, uning havosidan nafas olamiz, ilk qadamni uning bag'riga qo'yamiz. Tabiatga bo'lgan mehrimni, o'z-gacha munosabatimni payqagan onajonim gazetada e'lon qilingan tanlovda qatnashishni maslahat berdilar. Tanlov g'olibi bo'lganimdan juda xursandman.



– Tengdoshlarim chizgan rasmlar ham bir-biridan chiroyli ekan, – deydi Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi **MADAMINOVA.**

Mubinaxon AXROROVA,
Sirdaryo viloyati,
Mirzaobod tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
2-sinf o'quvchisi:

BU KUNNI UNUTMAYMAN

– 6 yoshimdan maktabga borganman. Sinfdoshlarim ichida ham, bugungi tanlovda g'olib bo'lganlar orasida ham eng kichigim. Ustozim Gulsara opa sinfimizda «Men tabiatni qanday asrayman?» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazdilar. Men chizgan rasm hammaga yoqdi. Unda men kulib turgan quyoshni, raqsga tushayotgan gul-larni aks ettirdim. Shunda ustozim, sening ishingni «Tong yulduzi»da e'lon qilingan «Onajonim tabiat» tanloviga yuboramiz, dedilar. Ijodiy ishim tanlovda ijobiy baholanganini eshitib, rosa xursand bo'ldim. Mana, Toshkentga kelib diplom va sovg'alarni qo'limga oldim. Bu mening birinchi mukofotimdir. Bu kunni sira unutmayman.

Nilufar KELDIBEKOVA, Jizzax shahar ixtisoslashtirilgan san'at maktabining 5-sinf o'quvchisi:

RASSOM BO'LMOQ ORZUSIDA

– Men rasm chizishga juda qiziqaman. Shuning uchun ona tabiatimizni, atrof-muhitni ko'p kuzataman. Go'zal manzaralar menga ilhom bag'ishlasa, ekologik muammolar dilimni og'ritadi. Chizgan rasmlarimda tabiat bilan bog'liq ikki xil holatni qiyoslab tasvirlash orqali tengdoshlarimni uni asrashga chorlamoqchi bo'laman. Bu ezgu niyatim tufayli mazkur tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan ekanman, buning uchun menga tasviriy san'atning sir-asrorlarini o'rgatib kelayotgan ustozim Oftoboy opa Jumaboyevadan behad minnatdorman.



Kumush ABDULQAYUMOVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim
maktabining 3-sinf o'quvchisi:

BOG'DAGI AJOYIB KUN

– Biz sinfimiz bilan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganmiz. Uning har bir sonini maroq bilan o'qib boramiz. Shu bois, sevimli nashrimda e'lon qilingan bu tanlov haqida xabar topdim-u, ustozim Dilorom opa Boymatovaga chizgan rasmlarimni ko'rsatdim. Ustoz mening «Yaylovda» nomli rasmimni tahririyatga yuborishni maslahat berdilar. Buni qarangi, ijodiy ishim menga muvaffaqiyat keltirdi. Ustozim bilan birga shahrimizdagi istirohat bog'ida o'tkazilgan taqdirlash marosimiga keldik. Ajoyib kun, yangi dugonalar haqidagi taassurotlarim bir olam. Endi ta'tilda ham, albatta, biror mashg'ulot bilan shug'ullanmoqchiman. Zero, kattalar aytishganiday, oldimizda hali ko'p imkoniyatlar bor.



– Turi nufuzli tanlovlarda g'olib bo'lishimda buvijonim va ustozim Dilshoda Narziyevaning xizmatlari katta, – deydi tanlov g'olibi, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 25-Bolalar musiqa va san'at maktabining 5-sinf o'quvchisi **MUKARRAM MIRJALILOVA.**

Qo'shsahifani o'z muxbirlarimiz tayyorlashdi

O'ZBEKISTONIM

O'zbekiston go'zal yurt,
Kelajagi porloq yurt.
Bog'da kuylar bulbullar,
Quchog'i to'la gullar.

Unda bor ko'm-ko'k mayssa,
Yam-yashildir bo'g'-dala.
Unda bor ishonch, tinchlik,
Xalqidir mag'rur o'zbek.

Zarinabonu ILHOMOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
131-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BAXTIYOR YURTDA

Tabiat insonni yaratgani rost,
Qo'ligul insonlar yashnatadi bog'.
Inson umri emas, mehnati bilan,
Hayot haqiqati o'lchangani chog'.

Qo'lni qo'lga berib bir so'z aytamiz:
Ozod bolalikning ertasi ozod.
Tinchlik hukm surgan baxtiyor yurtida,
Vatan doim obod, ko'ngillar ham shod.

Ayoli non yopar ko'ziga surtib,
Uni e'zozlaydi jasur uchuvchi.
Parvozga shay erur yurtning bolasi,
Hayratlarga to'lgan har bir o'quvchi.

Qo'lga qalam olib yana she'r yozdim,
Yaxshilarga uni etaman in'om.
Kattami-kichikmi mening yurtimda,
Barchaning qo'ligul, mehnatkash inson.

Feruz MO'MINOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
8-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ONAJONIM, YAGONAM

Eng buyuk zotdir onam,
Bu dunyoda yagonam.
Xasta bo'lgan chog'imda,
Boshim uzra parvonam.

Go'zallikka boy onam,
Sizga tuhfadir olam.
Mehringizning taftidan,
O'sib, ulg'aydim men ham.

Ruxshona QOBILOVA,
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi
29-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BORLIQ BEZANIB BOQDI

Sharqiragan soy oqdi,
Qushlar qanotin qoqdi.
Borliq bezanib boqdi,
Bizlarga bahor yoqdi.

Gul-lolalar ochildi,
Olamga nur sochildi.
Yerga urug' ekildi,
Bizlarga bahor yoqdi.

Oydinoy AHMEDOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
28-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KUNLARDAN BIR KUN...

Tog' manzarasi bahor, yoz oylarida yanada go'zallashib ketadi. Tog' bag'ridan sizib chiqayotgan buloq suvlarini ichsangiz, tanangiz yayrab, kayfiyatingiz ko'tariladi.

Bir kuni tog'dagi cho'pondan xabar olish uchun yo'lga chiqdik. Mashinamiz tog'ning ilonizi yo'lidan chayqalib-chayqalib yurib borib, nihoyat, tog'ning cho'qqisidagi o'tovga yetib bordi. Kun peshindan oqqan, tog'ning

shug'ini tiqib yotgan itga zimdan qarab qo'ydim.

...O'shanda bahor oylari edi. Bir kuni rosa jala quydi. Otarni bir amallab qayirib, qo'raga qamadim. Qarasam, bir sovliq yo'q. Jonivor hademay qo'zilay deyyotgandi. Qayerda qoldiykin-a, deb yonimga Bo'ribosarni oldim-u, yomg'irga ham qaramay, toqqa yo'l oldim. Qorong'i bo'lgani uchun atrofni umuman ko'rib bo'lmasdi, bu-

Boshimni sal ko'tarib, o'zimdanda ikki qadam narida bo'ri bilan olishayotgan Bo'ribosarga ko'zim tushdi. U raqibini yengib, men tomon odimlab kelardi. Bo'ribosar ustimdagi yirtqich bilan olisha ketdi. Uzoq olishuvdan keyin atrof suv quygandek tinchib qoldi. Quloqlarim shang'illardi. Ko'p qon ketgani uchun hushimni yo'qota boshlagandim. Ammo qo'y bilan qo'zichoqni bu yerda

BO'RIBOSAR

(Hikoya)



shamoli esib, etni junjiktirardi. Biz ichkarga kirib, biroz nafas rostladik. Shu payt uzoqdan qo'y-qo'zilarning ma'rashi eshitildi. Tohir aka qo'ylarni «qur-ey, qur-ey» deb haydab kelayotgan edi. Yonida ikkita bo'ribosar it ham bor edi. Katta itlarni ko'rmaganimiz uchunmi, ular bizga juda qo'rqinchli ko'rindi. Cho'pon qo'ylarni qamab bo'lguncha atrof qorong'ulashib bo'lgandi. Qiziqishim ortib Tohir akadan bu ovloq yerlarda bir o'zi qanday qilib qo'rqmay yashashini so'radim. Chunki jarda, tog' yon bag'irlarida bo'rilar borligini eshitgandim-da...

– Eh, qizim, mana bu itlarni ko'ryapsanmi? Ular mening doimiy hamrohim – qo'riqchilarning, – dedi Tohir aka olovning cho'g'ini qo'zg'ab. – Senga bir voqeani aytib beraymi, – dedi muloyim so'z boshlab. «Ha, juda yaxshi bo'lardi», dedim qiziqishim ortib.

– Mana bu ola itni ko'ryapsanmi, oyog'i sal oqsaydi. Uning laqabi Bo'ribosar. Bu jonivor meni bo'rilar galasidan asrab qolgan...

Gulxandan sal narida kat-takon panjalari orasiga tum-

ning ustiga, yomg'ir chelaklab quyardi. Nihoyat, uzoqdan qo'yning ma'ragani eshitildi. Qo'limdagi yoritgichni o'sha tomonga tutdim. Qarasam, qo'y jonivor butaning tagida qo'zilabdi. Shu payt Bo'ribosar qahr bilan hura boshladi. Shundoqqina yonginamdan bir sharpa «lip» etib o'tdi. Bobom rahmatli ham cho'pon o'tgan. U, bo'ri hech qachon to'g'ridan-to'g'ri hamla qilmaydi, seni atrofingda obdon aylanadi, qo'rqsang, hamla qiladi, degan edi. Shuncha yildan buyon bu o'gitni qulog'imga quyib olganim uchun bo'ridan qo'rqmadim. Xuddi hech narsani bilmagandek qo'y tomon odimladim. Shu payt ortimdan kuchli irillagan ovoz eshitildi. Bo'ribosar hurib unga yopishdi. Bo'ri anchagina yirik edi, buning ustiga sherigi ham bor ekan. Unisi menga otildi. Qo'limdagi tayoq bilan unga hamla qildim. Keyin bilmayman, qo'limdagi tayoq qayoqqadir uchib ketdi. Balchiqqa yuztuban yiqildim. O'g'irishga ulgurmasdim, chunki bo'ri uchun bu ayni muddao bo'lardi. Yelkam achishardi.

qoldirib bo'lmasdi. Galadagi boshqa bo'rilar ham kelib qolishi mumkinligini bilardim. Bo'ribosarning oyog'idan tirqirab qon oqardi. Qo'zichoqni qo'limga olib, o'tov tomon yo'l soldim. Ortimdan ona qo'y bilan it ergashdi. Yo'l yarimlaganda oyog'im toyib, yerga yiqildim, qolganini eslolmayman. Ko'zimni ochganimda, o'tovda yotardim. Yonimda qo'shni otardagi Odil mo'ylov degan cho'pon o'tirardi. Itni ham oyog'ini bog'lab qo'yibdi. Gulxan yonida yangi tug'ilgan qo'zichoq yotardi. Demak, chodirimga yetib kelibman, deya yengil tin oldim.

Oradan ikki kun o'tgach, Odil mo'ylov menga tun yarmida itning o'tovga borganini, qattiq hurib, tashqariga chorlaganini aytdi. «Bir gap bo'lgan-ov», deb u boshlagan tomonga kelaverdim, qarasam, bir ahvolda yotibsan, keyin otga o'ngarib o'tovga olib keldim, dedi...

Cho'ponning bu hikoyasidan keyin vafodor itga mehrim ortdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

YOZ-2019

Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyoti markazida «Yoz konsepsiya»sining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar yasagan turli buyumlar, rasmlar ko'rgazmasi, raketa modellarini uchirish marosimi hamda bolalar ishtirokida musiqiy dastur namoyish qilindi. Markaz qoshida tashkil etilgan yozgi sog'lomlashtirish maydonchasida o'quvchilar kitobxonlikka, vatanparvarlikka chorlovchi mashg'ulotlarda qatnashib, yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishlari mumkin.



– Men ingliz tili to'garagiga qatnayapman. Mashg'ulotlarda tengdoshlarim bilan qiziqarli savol-javoblar tuzamiz. Bir-birimiz bilan fikr almashamiz. Bu esa bilimimizni boyitishga yordam beradi, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 217-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Asilbek O'ROQOV.



– Men sportning shaxmat turiga juda qiziqaman. To'garakka qatnab, ustozimdan shaxmatning murakkab sir-asrorlarini o'rganyapman. Yozgi ta'tilda bekor yurmasdan, shaxmatdan saboq olishni davom ettirmoqchiman, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 107-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Xondamir ABDULLAYEV.



«Aviamodel» to'garagi rahbari Abdunabi aka HOJIBOYEV: – To'garagimizda iqtidorli bolalar ko'p. Ular bilan mashg'ulot olib borish zavqli. Faol to'garak a'zolaridan Muhammaddiyor Jalolov, Muhammadali Mahmudov, Abduvohid Abdurazzoqov, Miron Gayshummed, Umar Shernazarov hamda Isroil Bahodirovlar katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellarini yasab, musobaqada bellashishdi va g'oliblikni qo'lga kiritishdi. G'oliblar Shayxontohur tumani «Vatanparvar» tashkiloti tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

N. ABDUNAZAROVA

QUVNOQ BEKATCHALAR

Maktabimiz hovlisida bugun tengdoshlarimning sho'xshodon kulgulari yangramoqda. Ta'lim dargohimizda faoliyat boshlagan «Shodlik» yozgi sog'lomlashtirish maydonchasi chindan-da barchamizga quvonch ulashmoqda.

Unda tashkil qilingan «Quvnoq bekatchalar», «Kim epchil-u kim chaqqon?» singari sport musobaqalarida maroq bilan ishtirok etmoqdamiz. Hatto ustozlarning ham bellashuvlarda faol qatnashishayotgani o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, shubhasiz. To'garaklarga keladigan bo'lsak, qizlarga «Mohir qo'llar» to'garagi manzur bo'layotgan bo'lsa, o'g'il bolalarning har doimgidek maydonda to'p surishga ishtiyoblari baland. Shaxmat-shashka, stol tennisi kabi sport to'garaklarining ham o'z ishqibozlari bor, albatta. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Ma'mura opa Xodjayeva esa hamon tadbirlarni tashkillashtirishda davom etmoqda. «Men sevgan asar», «Bahribayt», «San'atim – saodatim» kabi tadbirlarda men kabi ijodkor o'quvchilar o'z iste'dodlarini namoyish qilishmoqda. Maydonchaga rahbarlik qilayotgan Hilola Musurmonova esa bolalarni turli istirohat bog'lari-yu teatr tomoshalariga olib borishni rejalagani-rejalagan. Buni qarangi, ustozlarimiz o'zlariga quyidagicha shior tanlashibdi: «Bolalar quvonchi – o'qituvchilarning baxti». Bizga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, mazmunli dam olishimizni ta'minlayotgan ustozlarimizdan behad minnatdormiz.

Azizbek ABDUMALIKOV,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
202-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Maktabimizda ota-onalar ishtirokida BOLANGIZGA KITOB OLING shiori ostida kitobxonlik bayrami bo'lib o'tdi.



Qo'qon texnika universitetining rektori Sharifjon Po'latovning tashrifi maktab jamoasini behad quvontirdi. U kishi so'zga chiqib, o'quvchilik yillarini, bilim bergan ustozlarini xotirladi. Bolalarga kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lishlari uchun vaqtdan unumli foydalanib, ko'proq kitob mutolaa qilishlari kerakligini aytdi. Ish faoliyati davomida erishgan yutuqlarida aynan kitobning o'rni katta ekanligini ta'kidladi. Shundan so'ng, mehmonlar maktabimizning faol o'quvchilariga, maktabimiz kutubxonasiga badiiy kitoblarni sovg'a qilishdi.

3-«G» sinf o'quvchilarining Vatan, tinchlik, do'stlik, kitob o'qish mavzusidagi she'rlari, sahna ko'rinishlari, kuy-qo'shiqlari barchaga manzur bo'ldi. Bu kabi tadbirlar nafaqat bolalarni, balki ota-onalarni ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, shubhasiz.

Feruz NIZOMIDDINOVA,
Beshariq tumanidagi 26-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

RASSOMNING O'TKIR NIGOH

Butun boshli koinotdan Stiven Uilsherga o'xshash odamni topa olmaysiz. U yoshligidanoq boshqalardan ajralib turar edi. Bola bo'lib yaqin do'st ortira olmagan qahramonimizni qiziqarli mashg'ulotlar-u maktabdagi fanlar ham o'ziga jalb etolmadi. Stiven 9 yoshga to'lsa-da, so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmasdi. Maktab imtihonlaridan o'ta olmagan bolakayga shifokorlar tomonidan nihoyat, autizm (ruhiyat bilan aloqador kasallik) tashhisi qo'yildi. Ammo Stivenda yashirin iste'dod kurtak o'tmoqda edi. Rasm chizish uning yagona, sevimli mashg'uloti edi. Tasviriy san'at Stivenning olamini o'zgartirdi.

Stiven avvaliga qiziqarli komik rasmlar chizishni mashq qilib yurdi. Keyinchalik me'moriy inshootlarni tasvirlash uning asosiy mashg'uloti-



ga aylandi. Stivenning o'ziga xos qobiliyati shunda ediki, u manzaraga faqatgina bir bora nazar tashlar edi, xolos. Yaratgan asarlarida

har bir buyum nihoyatda aniqlik bilan tasvirlanar, bolakay nigohining kuchli xotirasi barchani hayratda qoldirardi. O'n ikki yoshida chizgan rasmi unga olamshumul shuhrat keltirdi. Stiven bir soat ichida televideniye kameralari qarshisida Londondagi vokzallardan birining tasvirini chizdi.



Asarda kichik buyumlar ham nihoyatda aniqlik bilan tasvirlangan bo'lib, bolakay nigohidan vokzaldagi soat millari (11:20) ham chetda qolmagandi.

Stiven Uilsher hozirda zamonamizning mashhur rassomlaridan biri. U yaratgan ko'plab asarlar san'at muzeylarida, xususi kolleksiyalarda saqlanadi. Rassom London, Rim, Nyu-York kabi dunyoning maftunkor shaharlarining ajoyib manzaralarini yaratib, Buyuk Britaniya qirolichasi e'tirofiga sazovor bo'ldi va Londonda o'z galereyasini ochdi. Hozirgi kunda Stivenning san'at galereyasi Londonning sayyohlar bilan gavjum maskanlaridan biriga aylangan.

Muhammadsharif **FAYZULLAYEV** tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

RAQAMLAR MAYDONI

Krossvorddagi so'z-harflar raqamlashtirilgan bo'lib, javob so'zlari raqamdan-raqamgacha yozilgan.

1-4. O'zbek xalq kuyi. 1-6. Diyorimizdagi viloyat, shahar. 7-10. Maktubning sinonimi. 1-10. Adib B. Boyqobilov «Xamsa»si. 8-10. Toile. 9-15. O'g'il bolalar ismi. 15-17. Bir o'rkachli tuya. 13-18. Osmono'par inshoot. 16-21. Oro berilgan. 18-21. Sekin... 20-25. O'lchov asbobi. 23-26. Yemish mahsulot. 26-29. Majnunning asl ismi. 29-36. Maqola, asar atamasi. 32-25. Kitob kursisi. 32-36. Asardan parcha. 37-43. Muxtor Ashrafiy operasi. 41-45. Adabiy janr. 43-49. Ko'rinish, tasvir. 46-1. Yurtimizdagi tog', daryo. 49-2. Alloma Ibn Sino tug'ilgan joy nomi. 51-2. G'o'za guli.

Topshiriq: Soat mili yo'nalishida hamda raqamlar yordamida o'zbek xalq maqollaridan ikkitasini o'qing.

Pazanda qizga!



Yozning issiq kunlarida muzqaymoqni jon dildan sevib yeydigan barchaga bugun uni uy sharoitida tayyorlashni o'rgatmoqchimiz. Qanday yaxshi, endi kattalarga «Muzqaymoq olib bering», deyavermay, uni o'zimiz hozirlaymiz-u, oqizib-tomizmay uyda likopchaga solib, iste'mol qilamiz.


MUZQAYMOQ TAYYORLASHNI BILASIZMI?

Buning uchun, albatta, bizga birinchi navbatda qaymoq kerakligini yaxshi bilasiz. Qaymoqning yog'iligi 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Muzday qaymoqni mikser yordamida ko'pirtiramiz. Vanilin va qand upasini qo'shib massaliqlarni momiq ko'pik holiga keltiramiz. Idishni ag'darganimizda, undagi massa oqib tushmasa, muzqaymog'imizni tayyor holga kelgan, deb hisoblayvering. Faqat endi uni konteyner idishga joylab -20 darajadagi muzxonaga qo'yamiz. Oradan bir necha soat o'tib, muzlagan shirinlikni qoshiqda dumaloq shaklda olib likopchalarga solib, mevalar bilan bezashingiz mumkin.

Agar orangizda sutdan tayyorlangan kokteyl ichimligini xush ko'radiganlar bo'lsa, bugun ularni ham siylashimiz mumkin. Buning uchun faqat qaymoq o'miga sutdan foydalanamiz. Yuqoridagi kabi 1 stakan sutga teng miqdorda sevimli mevangizdan qo'shasiz va 3 daqiqa blenderda ko'pirtirasiz. Iltisangiz, bir oshqoshiq shakar ham solib, ko'pirtirishda davom eting. Quyuq va ko'pik holga kelgan ichimlikni mazza qilib iste'mol qiling. Oila a'zolaringiz ham tayyorlab berishni unutmang!

Yoqimli ishtah!

NARGIZA tayyorladi



Tuzuvchi:
Anvar MIRZAZODA

8

10-iyun 2019

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz **ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon **QURONBOYEV**,
Dilshod **KENJAYEV**,
Murtazo **SULTONOV**,
Feruz **JALILOVA**,
Ashurali **JOR'AYEV**
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz **MATYOQUBOV**
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira **NAZAROVA**

Rassom
Feruzbek **KAMOL** o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillim va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 12621
Buyurtma - V 3486

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08